

# Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) va "O'zkimyosanoat" AJ grant tanlovini e'lon qiladi!

// 30 May 2022 yil

<https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/koica-grant-tanlovi>



Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) "O'zkimyosanoat" AJ bilan hamkorlikdagi qo'shma loyiha doirasida Koreyaning nufuzli oliygohida kimyo sohasida magistratura (12 ta o'rin) va doktorlik (PhD, 10 ta o'rin) yo'nalishlarida grant asosida barcha xarajatlar qoplangan holda ta'lim olish uchun tanlovlar e'lon qiladi! O'qishni muvaffaqiyatli tamomlaganlar yangi tashkil etiladigan Ilmiy-tadqiqot va loyihalash instituti - Kimyo texnologiyalari markazida o'z faoliyatlarini davom ettirish imkoniyatiga ega bo'lishadi! Hujjatlar 2022-yilning 31-iyuligacha qabul qilinadi.

Qo'shimcha ma'lumotlar olish uchun quyidagi telefon raqamlariga murojaat etishingiz va xujjatlarni onlayn tarzda yuborish uchun quyidagi havolaga o'tishingiz mumkin:

<https://forms.gle/Si7CiuXdccnHxFzD9>

**Telefonlar: (+998) 97 136-35-07; (+998) 90 139-90-07; (+998) 90 045-42-28; (+998) 93 562-76-25**